



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**O‘zbekiston sharoitida suv omborlarini loyihalash, qurish va
ulardan foydalanish bo‘yicha sanitariya qoidolari va me‘yorlari**

**O‘zbekiston Respublikasining
0315-14- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

_____ S.S. Saydaliyev

30-avgust 2014 yil

**O‘zbekiston sharoitida suv omborlarini loyihalash, qurish va
ulardan foydalanish bo‘yicha sanitariya qoidalarini va me‘yorlari.**

**O‘zbekiston Respublikasining
0315-14- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014

Ishlab chiquvchi muassasa: O‘zR SSV Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti

Tuzuvchilar:

Ilinskiy I.I. – tibbiyot fanlari doktori, professor

Shoumarov S.B. – tibbiyot fanlari nomzodi

Mirshina O.P. – tibbiyot fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Taqrizchilar:

Zaredinov D.A. – tibbiyot fanlari doktori, professor, gigiyena kafedrası mudiri ToshVMOI

Usmonov I.A. – tibbiyot fanlari doktori, O‘zR QXVITII Irrigatsiya va suv muammolari instituti Hidroekologiya va suv resurslarini muhofaza qilish laboratoriyasi mudiri

Sadikov A.U. – tibbiyot fanlari doktori, professor (O‘zR SSV SGKITI)

Ushbu sanitariya qoidalari va normalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Inson atrof-muhitining potensial noqulay omillarini gigiyenik tartibga solish qo‘mitasi yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va ma’qullandi (2013-yil "___" _____dagi _____-son bayonnoma)

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi (2014-yil 22-avgustdagi 6-24/32-10437/6-sonli xat)

Ushbu sanitariya qoidalari va me’yorlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarining kommunal gigiyena bo‘yicha shifokorlari, suv va kommunal xo‘jalik, tabiatni muhofaza qilish organlari, hokimiyatlar, loyiha va boshqa tashkilotlarning O‘zbekiston suv omborlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARIDAN KO‘CHIRMA

1. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida"gi Qonuni (2-, 7-, 9-, 15-, 19-, 29-moddalar).
2. O‘zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida"gi Qonuni (1-, 11-, 78-moddalar).
3. O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida"gi Qonuni (2-, 5-, 6-, 12-moddalar).
4. O‘zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida"gi Qonuni (6-, 13-moddalar).

1.UMUMIY QOIDALAR

1.1. Noqulay tabiiy va antropogen omillar majmuasining ta’siri, suv taqchilligi va cho‘llanish jarayonlarining rivojlanishi tufayli O‘zbekistonning bir qator hududlarida suvdan foydalanish sharoitlari va aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik-gigiyenik vaziyat keskinlashdi. Daryolar suv resurslarining kamayishi munosabati bilan kelajakda aholini xo‘jalik-ichimlik suvi bilan ta’minlashning gigiyenik nuqtai nazardan yagona maqbul suv manbalari sifatida, odatda, turli maqsadlarga mo‘ljallangan gidrotexnik inshootlar tarkibiga kiruvchi mamlakatning o‘zanli va to‘ldirma suv omborlari qolmoqda.

1.2. Hozirgi vaqtda gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini hamda xavfsiz ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hisoblanadi. Uning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida"gi Qonunining 6-moddasida belgilangan.

1.3. Suv omborlaridan O‘zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida"gi Qonunida nazarda tutilgan bir yoki bir necha maqsadlarda foydalanish mumkin. Suv omborlarining suv resurslaridan ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti, shu jumladan rekreatsion maqsadlarda foydalanish boshqa maqsadlardan ustun hisoblanadi. Bunda, suv omborlaridagi suvning tegishli sifatini ta’minlash va ulardan foydalanish aholi salomatligi uchun xavfsiz bo‘lishi sharti bilan, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Respublika suv omborlarini sanitariya nazoratidan o‘tkazishda aholini markazlashgan xo‘jalik-ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida 0244-07-sonli "Suv ta’minoti manbalari va xo‘jalik-ichimlik suv quvurlarining sanitariya

muhofazasi zonalarini loyihalash va ulardan foydalanishning sanitariya me'yorlari va qoidalari" SanQvaMga rioya qilish zarur.

1.4. Suv omborlarida ogohlantiruvchi sanitariya nazorati loyihalash va qurishning barcha bosqichlarida suv ombori tubini suv bosishga tayyorlash bo'yicha gigiyenik va sanitariya-texnik tadbirlar majmuasining bajarilishini nazorat qilishni o'z ichiga olishi kerakligini hisobga olish lozim. Bu tadbirlarga aholi punktlarini ko'chirish, maishiy va sanoat chiqindilarini to'plash hamda utilizatsiya qilish joylarini yo'q qilish, qabristonlar va hayvon ko'mish joylarini ko'chirish yoki mustahkamlash, o'simliklarni tozalash, muhandislik himoya vositalaridan foydalanish va boshqa ko'plab chora-tadbirlar kiradi.

1.5. Suv omborlarini loyihalash va qurishda mazkur tadbirlarni amalga oshirishga qo'yiladigan sanitariya talablari "O'zbekiston sharoitida suv omborlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bo'yicha sanitariya qoidalari va me'yorlari" deb nomlangan alohida sanitariya-me'yoriy hujjatda bayon etilgan. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" va "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlari talablariga muvofiq tuzilgan.

1.6. Ushbu Sanitariya qoidalari gidrotexnika inshootlarida suvning tegishli sifatini ta'minlash va ularga tutash hududlarda aholi uchun munosib sanitariya sharoitlarini yaratish maqsadida, bu inshootlarga qo'yiladigan asosiy sanitariya talablarini belgilaydi.

2. SUV OMBORLARINI LOYIHALASH VA QURISHDA OGOHLANTIRUVCHI SANITARIYA NAZORATI

2.1. Suv ombori o'zanini va suv bosish hududini tayyorlash ishlari tarkibi va hajmi quyidagilarni hisobga olgan holda aniqlanadi: suv omborining ish rejimi bo'yicha suv xo'jaligi hisob-kitoblari, quyi oqimda sanitariya oqimlarini (chiqarishlarni) ta'minlash, shuningdek suv omboridagi suv sifati prognozi. Bunda suv bosadigan hududning turli elementlari, qoldiq o'simliklar, tuproq-gruntlar va boshqalarning ta'siri inobatga olinadi.

2.2. Suv bosadigan hududni sanitariya jihatidan tayyorlash xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti manbai sifatida suv omborlari suvining tegishli sifatini shakllantirishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Qirg'oqbo'yi hududlarini sanitariya jihatidan tayyorlash esa aholi tomonidan madaniy-sog'lomlashtirish maqsadlarida foydalanish uchun bajariladi.

2.3. Barcha aholi punktlari, shuningdek alohida binolar va inshootlarni suv omborlarining suv bosish hududidan to'liq ko'chirish majburiy sanitariya-texnik tadbir hisoblanadi.

Aholini ko'chirish yilning eng qulay faslida o'tkazilishi lozim. Bunga yangi aholi punktlari joylashadigan hududlarni tanlash, aholi manzilgohlarini rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish, aholini suv bilan ta'minlash manbalarini aniqlash bo'yicha tayyorgarlik ishlari oldin bajarilishi kerak.

2.4. Doimiy va vaqtinchalik suv bosish (suv toshqinlari va pastki beflardagi qishki boshqariladigan sathlar davrida), suv bosishi va qirg'oqlarning o'pirilishi zonalarida joylashgan barcha aholi punktlari, korxonalar, binolar va inshootlar SHNQ 2.07.01 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurishni rivojlantirishni rejalashtirish" va QMQ 2.06.15 "Hududlarni suv bosishi va suv bosishidan muhandislik himoyasi" talablariga muvofiq ko'chirilishi yoki muhandislik himoyasi bilan ta'minlanishi lozim.

2.5. Suv bosish zonasi maishiy jihatdan ham, aholi salomatligi uchun ham noqulay hudud hisoblanadi. Shu sababli, suv bosmaydigan bo'lsa-da, bo'lajak suv olish inshootlarining sanitariya muhofazasi zonasi (SMZ) ning 2-mintaqasi chegaralariga kiradigan va suv sathidan 150 m va undan yaqinroq masofada joylashgan barcha aholi punktlari va korxonalar ham ko'chirilishi shart. Bunda barcha binolar buziladi va olib chiqiladi, qoldiqlari esa yoqib yuboriladi.

Bo'lajak suv olish inshootlarining SMZ 2-mintaqasi chegaralariga kirmaydigan, hatto suv sathidan 150 metrdan uzoqroqda joylashgan barcha obyektlarda qat'iy cheklovlar joriy etiladi: suv ombori tomonidan tuproq devorlar bilan o'rash, qarama-qarshi tomondan tog' ariqlari bilan o'rash, chiqindilarni doimiy ravishda olib chiqib ketish uchun beton qabul qilgichlar bilan ta'minlash va vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish.

2.6. Bo'lajak suv ombori o'zanida barcha maishiy va sanoat chiqindilari (axlat, go'ng, iflosliklar, tashlandiqlar va boshqalar) yo'q qilinishi shart. Bunda, kelajakdagi suv olish inshootlariga eng yaqin joylashgan uchastkalardan to'plangan, epidemiologik jihatdan xavfli chiqindilar loyihalanayotgan suv olish inshootlarining 2-chi himoya mintaqasidan tashqariga chiqarilishi lozim. Tuproqning 90-60 sm qalinlikdagi qatlami olib tashlanadi (zarur chuqurlik laboratoriya tadqiqotlari natijalariga ko'ra belgilanadi) va dezinfeksiya qilinadi.

2.6.1. Suv ombori o'zanini tayyorlash ishlari u suv bilan to'ldirilishidan kamida 1 yil oldin amalga oshirilishi kerak. Sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari bilan kelishilgan holda, yuqorida sanab o'tilgan to'plamlarni organik moddalarning to'liq minerallashuvini ta'minlash uchun joyida yupqa qatlamda tarqatib, keyinchalik haydab yuborish mumkin. Biroq bu ishlar suv bosishdan oldingi bahor-yoz mavsumidan kechiktirmay bajarilishi lozim.

2.7. Suv bosish, suv ko'tarilishi va qirg'oq o'pirilishi zonasiga tushadigan barcha dafn etish joylari yopilishi shart.

2.8. Yangi dafn etish joylarini tanlash yoki mavjud qabristonlardan qaysi birida qabr qoldiqlarini qayta ko'mish mumkinligini aniqlash amaldagi sanitariya qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.9. Qabrlarni ko'chirish yoki faqat ularni mustahkamlash masalasi har bir alohida holatda ko'rib chiqilishi kerak. Bunda qabrlarning suv omborlari o'lik hajmi sathiga nisbatan joylashuvi, dafn etish vaqti (qabriston davri), joyning topografik xususiyatlari, to'lqin ta'sirining tabiati va tub jinslarning tarkibi hisobga olinishi lozim.

Qabrlar suv omborlarining ishlaydigan zonasida va undan 2 metr yuqorida, qirg'oq hosil bo'lish zonasida, shuningdek suv olish inshootlari uchun mo'ljallangan joylarda joylashgan bo'lsa, ularni albatta ko'chirish shart.

Qabrlar o'lik hajm zonasida joylashgan bo'lsa, ularni mustahkamlash zarurati va usuli masalasini hal etish lozim. Agar qabr ustidagi suv chuqurligi to'lqin balandligidan 1,5-2 baravar katta bo'lsa, to'lqin o'tishidagi maksimal tub tezligi turli gruntlar uchun gidrotexnika qurilishi amaliyotida qabul qilingan yuvilib ketishga ruxsat etilgan tezlikdan oshmasa, shuningdek, agar qabr yer osti suvlari tebranish zonasiga va qirg'oqlarni qayta ishlash hududiga tushmasa, uni maxsus mustahkamlash talab etilmaydi.

Agar qabr o'zgaruvchan harakat yo'nalishiga ega bo'lgan yer osti suv oqimining tebranish zonasiga tushib qolsa, muhandislik gidrologik hisob-kitob usullari bilan aniqlanadigan qabr sanitariya zonasini belgilash zarur va bu zonada yangi ko'mishlar o'tkazish taqiqlanadi.

2.10. Agar yer osti suvlari sathining eng yuqori hisobiy darajasi (suvning kapillyar ko'tarilishsiz) qabr tubining minimal belgisidan 1-jadvalda turli gruntlar uchun ko'rsatilgan S miqdorga past bo'lsa, qabrlar yer osti suvlari tebranish zonasiga tushmagan hisoblanadi.

1-jadval.

T/r	Grunt turi	S miqdori, m
1.	O'rta donali qum	1,15 - 1,35
2.	Mayda donali qum	1,36 - 2,00
3.	Qumloq	2,01 - 2,50
4.	Yengil qumoq	2,51 - 3,00
5.	O'rtacha qumoq	3,01 - 4,00
6.	Og'ir qumoq	4,01 - 5,00
7.	Loylar	5,01 - 6,00

Eslatma: S qiymati keyinchalik aniqlanishi lozim.

2.11. Suv omborining o'lik hajmida qoldirilgan qabriston hududiga 5% faol xlor yoki 4% formaldegid eritmasi saqlovchi xlorli ohak yoki natriy gipoxlorit bilan ishlov beriladi hamda suyaklar, axlat va boshqa chiqindilardan tozalanadi. Biotermik chuqurlar kamida 5 sm qalinlikdagi quruq xlorli ohak bilan to'ldiriladi, so'ngra toza tuproq bilan ko'miladi va mustahkamlanadi.

2.12. Suv bosish, qirg'oqlarning o'pirilishi va suv bosish zonasiga tushuvchi chorvachilik obyektlari, shuningdek, hayvon xomashyosini saqlash va qayta ishlash korxonalari hududlarini sanitariya jihatidan tozalash xo'jaliklar va korxonalarining epizootik holatiga muvofiq amalga oshiriladi:

yuqumli kasalliklar bo'yicha qulay vaziyatdagi xo'jaliklar va korxonalarda go'ng, axlat, go'ng shaltog'i suv bosadigan hududdan tashqaridagi dalalarda zararsizlantiriladi. Chiqindilarni olib chiqib ketish imkoni bo'lmagan hollarda go'ng va axlat joyida yoqiladi, go'ng shaltog'i esa suv bostirilishidan oldin, bir bahor-yoz mavsumidan kechiktirmay, yer yuzasiga to'kiladi va keyinchalik qayta haydaladi;

kuydirgi kasalligi sporalarining atrof-muhitda juda uzoq vaqt yashab qolishi tufayli epidemiologik xavf tug'diradigan hayvon qabristonlarini suv bostirishga qaror qabul qilishda alohida ehtiyotkorlik talab etiladi. Zoonoz kasalliklar (kuydirgi, emfizematoz karbunkul, qoqshol) bo'yicha xavfli bo'lgan xo'jalik va korxonalarda go'ng, go'ng suyuqligi va yig'ilgan axlat joyida yoqib yuboriladi. Kuydirgi, emfizematoz karbunkul, qoqshol holatlari qayd etilgan chorvachilik binolari (qo'ralar, sayr maydonlari va boshqalar) tuprog'i 5% faol xlor saqlovchi dezinfeksiyalovchi vosita eritmasi, kalsiy gipoxlorit yoki 4% li formaldegid eritmasi bilan sug'oriladi. Shundan so'ng, toza tuproqqacha bo'lgan (lekin kamida 25 sm) tuproq qatlami suv bosadigan hududdan tashqariga olib chiqiladi va chorva qabristoni hududida kamida ikki metr chuqurlikka ko'miladi. Yer osti suvlari past joylashgan hududlarda bu tuproq o'lik hajm zonasidagi maxsus transheyalariga kamida 1,5 metr chuqurlikda ko'miladi. So'ngra u xlorli ohak yoki kalsiy gipoxlorit bilan kamida 3 sm qalinlikda qoplanadi va toza tuproq bilan to'ldiriladi, albatta optimal darajada namlanadi va zichlanadi. Tuproq olib tashlangandan so'ng, zararlangan xo'jaliklar hududi har 1 m² maydon uchun 5 kg hisobidan quruq xlorli dezinfeksiyalovchi vosita bilan qoplanadi, namlandi va kamida 25 sm chuqurlikda qayta haydaladi.

sanitariya tozalash zonasiga kiruvchi kanalizatsiya tozalash inshootlari, axlatxonalar, assenizatsiya, sug'orish va filtratsiya maydonlari yopilishi shart. Ko'rsatilgan inshootlar joylashgan hududlar suv ombori to'ldirilishidan oldin bir bahor-yoz mavsumidan kechiktirmasdan o'lik hajm zonasida qayta haydalishi lozim. Suv omborining pasayish, suv bosish va qirg'oq o'pirilish zonasidagi mazkur inshootlar hududida ifloslangan tuproq qatlamini toza tuproqqacha kovlab olib tashlash, uni bashorat qilinayotgan suv bosish va qirg'oq o'pirilish hududidan

tashqariga chiqarish, so'ngra hududni quruq xlorli ohak bilan zararsizlantirib, toza tuproq bilan to'ldirish zarur.

sanoat korxonalari ko'chirilgandan so'ng hududni tozalash aholi punktlariga qo'yiladigan talablar asosida amalga oshiriladi. Korxonalarining sanoat chiqindilari maxsus inshootlar yoki poligonlarga transportda olib chiqiladi. Teri zavodlari, jun yuvish korxonalari, qushxonalar, nobud bo'lgan hayvon jasadlarini qayta ishlash zavodlari, zaharli kimyoviy moddalar, yonilg'i-moylash materiallari omborlari, zaharli va boshqa sanitariya jihatidan xavfli chiqindilar saqlanadigan joylar amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq dezinfeksiya, degazatsiya va dezaktivatsiya qilinishi shart. Keyin esa tuproq qatlami tozalanguncha (laboratoriya tekshiruvlari natijalariga ko'ra) olib tashlanib, tozalash zonasidan tashqariga, xuddi shu maqsadlar uchun belgilangan ko'mish joylariga chiqarib yuborilishi lozim.

suv bosish zonasiga tushuvchi quduqlar (ishlaydigan va ishlamaydigan) tamponaj qilinishi shart.

2.13. Ishlov berish usulini qo'llash odatda ko'milgan tuproqning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Lyossimon cho'kuvchi gruntlar va g'ovak qumoq tuproqlarga odatda termik usulda (kuydirib) ishlov beriladi; toshloq, shag'alli, toshli gruntlarga sementlash usuli qo'llaniladi; bog'lanmagan bo'sh gruntlarga esa sovuq bitum bilan to'yintirish usuli qo'llaniladi.

2.14. Suv omborlari tubini suv bosishga tayyorlashda o'simliklarni (daraxt va butalarni) tozalash jarayoni katta sanitariya-gigiyenik ahamiyatga ega bo'lib, u to'g'on yaqinidagi hududlarda, suv olish zonalarida, suv omborlaridan madaniy-maishiy foydalanish joylarida majburiy hisoblanadi va odatda mexanik usullar yordamida amalga oshiriladi. Suv omborining pasayish zonasi hududi me'yoriy dimlanish sathidan minimal pasayish sathi qo'shimcha 2 metrgacha o'rmon, mayda daraxtlar va butalardan tozalanishi, to'nkalar balandligi 50 sm dan oshmasligi kerak.

Suv omborlari tubini tayyorlash bo'yicha barcha tadbirlar u suv bosishidan kamida bir yil oldin yakunlanishi, butun suv ombori bo'ylab o'tkazilishi va ular tugamaguncha suv ombori hatto qisman ham to'ldirilmasligi lozim.

2.15. Hududni suv bosishiga sanitariya jihatidan tayyorlash tadbirlarining samaradorligi tuproqning sanitariya-mikrobiologik va kimyoviy tadqiqotlari natijalari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

2.16. Suv omborlarini loyihalash va qurish jarayonida ularning suv o'simliklari rivojlanadigan sayoz joylarda bezgak tarqatuvchi chivinlarning ko'payishi bilan bog'liq anafelogen xavfini aniqlash va bashorat qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Suv omborining aholi punkti uchun bezgak xavfi ko'rsatkichlari o'sha aholi punkti aholisi uchun bezgak tahdidini ifodalaydi. Bezgak xavfi ko'rsatkichlarining suv ombori qurilishidan oldingi va keyingi nisbati suv omborining qirg'oq bo'yi mintaqasi hamda atrofidagi aholi punktlari uchun bezgak

xavfining qanchalik oshganini ko'rsatadi. O'rta Osiyoda bezgak yuqtirish mavsumi may oyida boshlanib, oktyabrda (Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida noyabrda) tugashi sababli, bu davr bezgak uchun eng xavfli hisoblanadi va shu davrda barcha profilaktik choralarni to'liq amalga oshirish zarur.

Suv omborlarining bezgak xavfini aniqlash usuli quyidagilarga asoslangan: suv chuqurligi 2 metrgacha bo'lgan qirg'oq chizig'ini aniqlash, suv omborlari uchun o'rtacha oylik suv sathi grafigini tuzish, mintaqada aholining bezgak bilan kasallanish egri chizig'ini hisobga olish. Bu usul O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2012-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston sharoitida suv omborlarining anafelogen xavfini aniqlash va bashorat qilishning soddalashtirilgan usullari" uslubiy ko'rsatmalarida batafsil bayon etilgan.

2.17. Suv omborlari o'zanini tayyorlashning yakuniy tadbirlaridan biri u yoki bu sababga ko'ra suv omborlari ta'sir doirasida qoladigan aholi punktlarini muhandislik jihatdan himoya qilishdir. Bunga quyidagilar kiradi: o'rab olingan yerlarni keyinchalik melioratsiya qilish bilan ularni to'sish, to'g'on orqasidagi hududda drenajlar va yomg'ir suvi oqimlarini, nasos stansiyalari va boshqa zarur inshootlarni qurish.

Ihota o'rmonzorlarini barpo etish, suv omborlarini ko'kalamzorlashtirish va qirg'oqlarini mustahkamlash, shuningdek, ular joylashgan hududlarda qulay mikroiklim yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2.18. Suv omborining sanitariya-muhofaza hududi chegarasida aholi punktlari, chorvachilik fermalari va boshqa ifloslantiruvchi obyektlarni maxsus choralar ko'rilmadan joylashtirish man etiladi. Suv omborining 100 metrlik qirg'oq mintaqasida suv inshootlari, portlar va cho'milish joylaridan tashqari har qanday qurilish ishlari olib borish taqiqlanadi.

3. SUV OMBORLARINI ISHLATISH VA ULARDAN FOYDALANISHDA JORIY SANITARIYA NAZORATI

3.1. Suv omborlaridan foydalanish jarayonida joriy sanitariya nazorati quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

o'zgargan atrof-muhit omillarining mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini aniqlash maqsadida aholining kasallanish darajasi va sog'lig'i holatini muntazam ravishda o'rganish;

aniqlangan kamchiliklarni qayd etgan holda davriy sanitariya tekshiruvlarini o'tkazish;

laboratoriya va asbob-uskunalar yordamida suv omborlarining turli qismlarida suv sifatini mavsumiy tekshirish;

sog'lomlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

3.2. Joriy sanitariya nazoratini olib borishda O'zbekistonning quyilma va o'zan suv omborlaridagi suv sifati o'zgarishining asosiy farqlarini hisobga olish kerak. Har ikkala turdagi suv omborlarining gidrologik rejimi taxminan bir xil bo'lsa-da (to'liq hajmga to'ldirish oktyabrdan aprelgacha, bo'shatish esa qolgan 5 oy davomida amalga oshiriladi), ularning loyqa bosish muddatlari turlicha. Bu quyilma suv omborlarida maxsus bosh inshootlar qurilganligi bilan bog'liq bo'lib, ular tub cho'kindilarning suv keltiruvchi kanalga tushishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, bu turdagi suv omborlarining loyqa bosishi sekinroq (20-30 yildan ortiq) kechadi. O'zan tipdagi suv omborlarining loyqa bosishi esa ancha tez (yuqori qismda 5-6 yil ichida) sodir bo'ladi.

3.3. Shu bilan birga, quyilma suv omborlarida suvning bug'lanishi tufayli uning minerallashuv darajasini nazorat qilish zarur, chunki bu aholi tomonidan suv omborlaridan xo'jalik-ichimlik maqsadlarida foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Quyilma tipdagi suv omborlarida suvning mineralizatsiya darajasini bashorat qilishda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2012-yilda tasdiqlangan 012-3/0225-sonli "O'zbekiston suv omborlarida suvning mineralizatsiya darajasini bashorat qilishning soddalashtirilgan usuli" uslubiy ko'rsatmasida keltirilgan usuldan foydalanish tavsiya etiladi.

3.4. Xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti va aholining madaniy-maishiy ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv omborlariga suvning sifati va uning sanitariya holati bo'yicha maxsus talablar qo'yiladi. Bu talablar "O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer usti suvlarini muhofaza qilish bo'yicha gigiyenik talablar" bilan belgilanadi.

Suv omborida suv sifatini kerakli darajada saqlashning eng samarali usuli yillik suv almashinuvi kamida 10 marta bo'ladigan yetarli oqimni ta'minlashdir.

3.5. Suv omborlaridan foydalanish jarayonida suv muhofazasi zonasi va suv ombori akvatoriyasida sanitariya holatini va ekologik tizimlar muvozanatini saqlashga yordam beradigan hamda suv havzasidagi suv sifatini amaldagi sanitariya me'yorlari darajasida ta'minlaydigan tashkiliy-xo'jalik, agroo'rmonmeliorativ, agrotexnik, o'tloqmeliorativ, gidrotexnik va boshqa ishlar majmuasini bajarish lozim.

Suv omborlari atrofida himoya o'rmon mintaqalari sifatida buta tollarni (birinchi poyasda), terak va daraxtsimon tollarni (ikkinchi poyasda) hamda turli xil qurg'oqchilikka chidamli daraxt navlarini (uchinchi poyasda) ekish maqsadga muvofiqdir.

3.6. Suv havzasidagi suv sifatini amaldagi sanitariya me'yorlari darajasida saqlab turish uchun quyidagilarni ko'zda tutish zarur:

zaharli kimyoviy moddalar, pestitsidlar va mineral o'g'itlarni qo'llash me'yorlari va qoidalariga qat'iy rioya qilish, ularni to'g'ri tashish va saqlashni ta'minlash;

suv omborining o't va loyqa bosishiga, sayoz suv hududlarining "gullashi"ga qarshi kurashish, qirg'oqlarning yemirilishini oldini olish;

sanoat korxonalari, chorvachilik fermalari va komplekslarining oqava suvlari, neft mahsulotlari bilan tabiiy muhitning ifloslanishining oldini olish;

suv manbalari va suv omborlari yaqinida chorvachilik fermalari, yozgi yaylovlar, jihozlanmagan suv havzalari, neft omborlari, hayvon qabristonlari va qabristonlarning joylashishiga yo'l qo'ymaslik;

sanitariya-muhofaza mintaqasi doirasida suv ombori qirg'oqlari yonbag'irlarida chorva mollarini o'tlatishni taqiqlash;

suv omboridagi suv sifatining yomonlashuvini oldini olish maqsadida o'rmon ihota daraxtzorlarini, suvni muhofaza qilish mintaqalarini saqlash va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3.7. Suv omborlaridan (ayniqsa yirik suv omborlaridan) foydalanish jarayonida ularning joylashgan hududlar tabiiy muhitiga, jumladan iqlim sharoitlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini e'tiborga olish lozim. Xususan, bahorda suv omborlari qirg'oqbo'yi hududlarga sovutuvchi, iliq mavsumning ikkinchi yarmida esa isituvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ular ta'sirida odatda iqlimning kontinentalligi pasayadi, havo haroratining o'zgarishi bir maromda bo'ladi, kunlik o'zgarishlar kamayadi, havoning namligi (nisbiy va mutlaq) ortadi, bu esa qurg'oqchil hududlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Keng suv yuzalarining paydo bo'lishi shamollar tezligi va takrorlanishining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Iliq davrda suv omborlari akvatoriyasida yog'inlar odatda quruqlikdagiga nisbatan kamroq yog'adi, qirg'oq mintaqasida esa biroz ko'payadi.

Suv omborlarini barpo etish yer osti suvlarining sathi va rejimiga ta'sir ko'rsatadi, qirg'oq zonasidagi tuproq va o'simlik qoplamida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu zona kengligi tekislikdagi suv omborlarida bir necha kilometrgacha yetishi mumkin.

3.8. Suv omborlarining foydalanish jarayonida atrof-muhitga ko'rsatadigan sezilarli ta'siri, o'z navbatida, ularning suv omborlari joylashgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholining sanitariya-maishiy turmush sharoitlariga, kasallanish darajasiga va salomatlik holatiga salbiy ta'sir etishi mumkinligini tasdiqlaydi. Bejiz emas, suv omborlarining aholiga ta'siri ko'pincha ularni barpo etish bilan bog'liq barcha muammolar orasida eng dolzarb va alohida e'tibor talab etadigan masala hisoblanadi. Bunda aholini suv omborlari ta'sir hududidan ko'chirish va ularning

ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlarining o'zgarishi aholiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi.

3.9. Suv omborlarini barpo etish va ulardan foydalanish aholi salomatligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ko'pincha issiq iqlimli, tabiiy sharoitlari bir qator yuqumli kasalliklar, jumladan bezgak, o'tkir ichak va gelmintologik kasalliklar (shistosomatoz, opistorxoz va boshqalar) qo'zg'atuvchilari hamda tashuvchilarining ko'payishi uchun qulay bo'lgan mamlakatlarda kuzatiladi.

Chuqurligi 2 metrgacha bo'lgan sayoz suvlar suv o'simliklari biomassasi, ipsimon suv o'tlari va fitobentosning sezilarli hajmda jadal shakllanishi, "gullashi" va suv omborining parazitologik holatining yomonlashuvi sodir bo'ladigan hudud hisoblanadi.

3.10. Suv omboridagi suvning sanitariya holati va sifati o'zgarishi bashorati loyihalash jarayonida tuziladi; loyihada foydalanish davrida qo'llaniladigan suvni muhofaza qilish tadbirlari tarkibi belgilanadi.

Foydalanish davrida suvning sifati va uning amaldagi me'yorlarga muvofiqligini kuzatish natijalariga ko'ra, loyihada belgilangan suvni muhofaza qilish tadbirlarining tarkibi sifat va miqdor jihatdan o'zgartirilishi, to'ldirilishi va aniqlashtirishi mumkin.

3.11. Shuningdek, bilvosita omillar majmuasining sanitariya-maishiy sharoitlarga va aholi salomatligiga ta'sirini ham hisobga olish lozim: aholining suv bosish hududlarida yashashi, sanoat korxonalarining yopilishi yoki qayta ixtisoslashtirilishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va aholi faoliyatining boshqa turlari uchun sharoitlarning o'zgarishi kabilar.

Suv omborlarining atrof-muhitning yuqorida ko'rsatilgan texnogen tarkibiy qismlariga ta'siri turli geografik hududlarda, gidrouzellarning yuqori va quyi beflarida, hatto har bir suv omborining turli qismlarida xilma-xil va bir xil emas.

4. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Suv ombori - suvni saqlash va oqimni tartibga solish maqsadida suv oqimida suv to'siq inshooti yordamida hosil qilingan sun'iy suv havzasi.

Yuqori bef - suv to'siq inshootining yuqori qismidagi suv oqimining bir qismi.

Quyi bef - suv to'siq inshootining quyi qismidagi suv oqimining bir qismi.

Normal dimlanish sathi (NDS) - gidrotexnika inshootlaridan foydalanishning normal sharoitlarida ushlab turilishi mumkin bo'lgan yuqori befning eng yuqori loyihaviy dimlanish sathi.

O'lik hajm sathi (O'HS) - suv omborining foydali hajmini ishlatish jarayonida yo'l qo'yiladigan eng past sath bo'lib, u suv omborini normal ishlatish sharoitida qo'llaniladi.

O'rmon tozalash - barcha daraxt va buta o'simliklarini kesib tashlash, shuningdek, maydonlarni qulab tushgan va qurib qolgan daraxtlardan tozalash.

Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) - yirik va murakkab korxonalar hamda inshootlar uchun ishlab chiqiladigan, tasdiqlangan sxemada ko'zda tutilgan yechimlarni to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi rejalashtirishdan oldingi hujjat.

Suv tushirish zonasi - daryoning eng kam oqimi davrida, odatda yozgi va qishki kam suvli mavsumda suv omborining ishchi sig'imini pasaytirish natijasida suvdan bo'shaydigan suv ombori kosasi hududi.

O'lik hajm - suv omborini mumkin qadar eng ko'p bo'shatish darajasidan pastda joylashgan suv hajmi.

Sanitariya maqsadidagi suv chiqarish - suv omborining quyi oqimida suv sifati me'yorlariga rioya qilinishini va suvdan foydalanishning qulay sharoitlarini ta'minlaydigan eng kam suv sarfi.

Qirg'oqbo'yi suvni muhofaza qilish zonasi (QSZ) - daryo o'zanlari va suv ombori akvatoriyasiga tutash hudud bo'lib, unda ifloslanish, chiqindilar to'planishi va qurib qolishning oldini olish uchun maxsus tartib o'rnatiladi.

Suv almashinuvi koeffitsiyenti - suv omboriga keladigan suv miqdorining uning bir yillik o'rtacha hajmiga nisbati.

Sanitariya ko'mish zonasi (SKZ) - suv omboridagi suv kesimi bilan grunt oqimining beqaror rejimida (suv omboridagi sath tebranishi davrida) suv zarrachalari filtrlanib, suv omboriga tushadigan shartli chiziq orasidagi maydon.

ME'YORIY HAVOLALAR

1. QMQ 2.06.15-85 "Hududlarni suv bosishi va suv bosishdan muhandislik himoyasi"
2. ShNQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarida qurilishni rivojlantirishni rejalashtirish"
3. QMQ 2.06.01-97 "Gidrotexnik inshootlar. Loyihalashning asosiy qoidalari"
4. 3907-85-son "Suv omborlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishning sanitariya qoidalari"
5. SanQvaN № 0172-04. O'zbekiston Respublikasi hududida yer usti suvlarini muhofaza qilishga oid gigiyenik talablar
5. O'zR SanQvaN № 0200-06. O'zbekiston aholisini markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti uchun suv manbalarini gigiyenik baholash, sinflarini aniqlash va tanlashning sanitariya qoidalari va me'yorlari
6. O'zR SanQvaN № 0211-06. O'zbekiston aholisini markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimlarining sifatini nazorat qilish va gigiyenik mezonlari
7. O'zR SanQvaN № 0244-07. Suv ta'minoti manbalari va xo'jalik-ichimlik suv quvurlarining sanitariya muhofazasi zonalarini loyihalashtirish hamda ulardan foydalanishning sanitariya me'yorlari va qoidalari
8. 012-3/0113-sonli uslubiy ko'rsatma. O'zbekiston sharoitida yer usti suv manbalarini ifloslanishdan muhofaza qilishni tashkil etishning sanitariya-gigiyenik asoslari (2007-yil)
9. O'zR SanQvaM № 0255-08. O'zbekiston sharoitida suv havzalari suvining ifloslanish darajasini aholi salomatligi uchun xavflilik bo'yicha gigiyenik baholashning asosiy mezonlari.
10. O'zR SanQvaM № 0256-08. O'zbekiston sharoitida aholini markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimlarida suv tayyorlash jarayonlariga qo'yiladigan gigiyenik talablar.
11. O'zDST 950-2011. Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifat nazorati.
12. O'zDST 951-2011. Markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti manbalari. Gigiyenik, texnik talablar va tanlash qoidalari.